



## O'ZBEKISTONDA FICARIA CALTHIFOLIA RCHBNING EKO-BIOLOGIK VA TURLI XUSUSIYATLARI

*Guliston davlat universiteti*

*Dorivor o'simliklar va Botanika kafedrası*

*Magistranti Rayxona Bozorova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada *Ficaria calthifolia* Rchbning (Bahor chistyagi) o'simlikining eko-biologik xususiyatlari, ekologik tavsifi, o'simlikning tarqalish hududi, davolash usullari va turli imkoniyatlari namoyon qilingan.

**Kalit so'zlar:** *Ficaria calthifolia* Rchb, O'simlik, Ranunculaceae, Ekologik, Xalq tabobati, Evolyusiya, Zamonaviy tibbiyot, Davolash.

**Аннотация:** В статье показаны эколого-биологические свойства растения *Ficaria Calthifolia* Rchb, экологическое описание, ареал распространения, методы лечения и различные возможности растения.

**Ключевые слова:** *Ficaria Calthifolia* Rchb, Растение, Лютиковые, Экология, Народная медицина, Эволюция, Современная медицина, Лечение.

**Abstract:** In this article, the eco-biological properties of the plant *Ficaria calthifolia* Rchb, ecological description, distribution area, treatment methods and various possibilities of the plant are shown.

**Key words:** *Ficaria calthifolia* Rchb, Plant, Ranunculaceae, Ecological, Folk medicine, Evolution, Modern medicine, Treatment.

Kirish. Ayiqtovondoshlar (Ranunculaceae) oilasi vakili, bahor chistyagi (*Ficaria calthifolia* Rchb) o'simligi dunyoning ko'pgina hududlarida uchraydigan ko'p yillik efemeroid o't o'simlik hisoblanib, ikki turdagi nasl kurtaklari bilan: ildizlardan–tuberli qalinlashgan qo'shimcha ildizlar va barglarning qo'ltiqlarida–vegetativ ko'payish uchun. Barglari och yashil, yaltiroq, yuraksimon, eni 1–4 sm. Barglarining chetlari ba'zan yumaloq, lekin ko'pincha burchakli. Gullari yolg'iz, aktinomorf (to'g'ri), diametri 2,5–3,5 sm, 6–9 cho'zinchoq, yorqin sariq yaltiroq



barglari bilan. Gulbarglari tagida nectar chuqurchasi bor. Mevasi chumolilarni o'ziga jalb qiladi.(1)

Eko-biologik xususiyatlari: Bahor chistyagi (*Ficaria calthifolia* Rchb) o'sib rivojlanishi uchun o'ziga xos ekologik sharoitni, ya'ni sernam sharoitni talab qiladi. Agar poyasining deyarli uchdan bir qismi suvga ko'milgan holda o'ssa yanada yaxshi bo'ladi. Barg o'simlik organizmining eng nozik va nafis organi bo'lib, tashqi muhitning o'zgarishidan tez ta'sirlanadi. Bargning ichki tuzilishiga yorug'lik, namlik, harorat, shamol, tuproq va boshqa omillar kuchli ta'sir etadi. Bu ekologik omillardan eng ko'p ta'sir ko'rsatadigan namlik hisoblanadi.

O'simliklarda barglarning anatomik tuzilishidagi farqlar nafaqat ularning har xil ekologik sharoitda yashashiga, hatto bitta o'simlikning har xil yaruslarda joylashishiga qarab ham farq qilinadi. (1) Yorug'da va soyada joylashgan barglarning morfologik va anatomik tuzilishidagi farqlar, aynan yuksak o'simliklarga yaqqol namoyon bo'ladi. Bu o'simlik haqidagi ma'lumotni, mashhur yunon olimlaridan biri bo'lgan Dioskorid asarlarida uchratishimiz mumkin. U o'simlikning dorivorlik xususiyatlariga alohida e'tibor bergan holda, "yashil dorixona" deb ta'rif bergan.

O'simlik iyul oyidan to oktyabr oylarigacha gullab meva beradi. G'arbiy Sibirda esa iyun oyining o'rtalaridan sentyabrgacha gullab, meva beradi. Ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) oilasi vakillari yer sharining deyarli hamma qismida tarqalgan bo'lib, 50 turkum 2000 dan ortiq turni o'z ichiga oladigan yirik oilalardan biri hisoblanadi. Bu oila vakillari O'zbekiston florasida ham muhim o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekistonda bu oilaning bir qancha turkum va turini uchratishimiz mumkin. Bu oilaning ko'pgina vakillari o'zining ahamiyatli tomonlari bilan ajralib turadi. Oila vakillarining ko'pgina turlaridan insonlar o'z ehtiyojlari yo'lida turi maqsadlarda foydalanib, ularning bir qator samarali xususiyatlarini aniqlaganlar. Shunday o'simliklardan biri bahor chistyagi (*Ficaria calthifolia* Rchb) o'simligi hisoblanadi. Ushbu o'simlik turini dunyoning bir



qancha hududlarida uchratishimiz mumkin. Bahor chistyagi (*Ficaria vetchinik* Rchb) o‘simligini tabiiy jihatdan tarqalishi keng doirani o‘z ichiga oladi.

Bahor chistyagi (*Ficaria vetchinik* Rchb) o‘simligi respublikamizning ham ko‘pgina qismlarida tarqalgan: Ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) oilasi vakillarini Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo, Surxandaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarining daryo, ko‘l, ariq, hovuz, jilg‘a va ko‘lmaklar bo‘ylarida uchratishimiz mumkin. Ayniqsa o‘simlikning daryo, ariq bo‘ylarida to‘p-to‘p bo‘lib o‘sishi, uning namlikning sevishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari o‘simlikni nomi yaxshi bo‘lgan bog‘ va dalalarda ham uchratish mumkin. (2)

Bahor chistyagi (*Ficaria vetchinik* Rchb) o‘simligining morfologik tuzilishi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Poyasi kalta, bo‘g‘inli, uzunasiga cho‘ziq bo‘lib, uzunligi 10-20 sm (optmal sharoirga qarab uzunligi o‘zgarib turishi mumkin). Bargi cho‘ziq yumaloq, tekis qirrali tuksiz, uzunligi 1-3(5) sm. Barg bandi bilan poyani o‘rab turuvchi yondosh bargchalardan tuzilgan yupqa pardachasi qo‘ng‘ir ranga bo‘yalgan.

Gullari yolg‘iz, aktinomorf (to‘g‘ri), diametri 2,5–3,5 sm, 6–9 cho‘zinchoq, yorqin sariq yaltiroq barglari bilan. Gulbarglari tagida nektar chuqurchasi bor. Mevasi chumolilarni o‘ziga jalb qiladi.

O‘simlik bargining anatomik tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib, barg novdani yon organi hisoblanadi. Barg o‘simlikning yer ustki organi bo‘lib, u o‘simlikning tarixiy taraqqiyoti davrida suv (namlik) sharoitidan quruqlikka o‘tish jarayonida vujudga kelgan. Bargning anatomik tuzilishi bajaradigan vazifasiga bog‘liq bo‘lib, uning egiluvchanligini ta‘minlaydi. O‘simlikning anatomik tuzilishini ko‘rish uchun ishqor bilan ishlov berilgan barg yoki gulqo‘rg‘onning tashqi tuzilishi mikroskop ostida qaraladi. Bargning epidermis hujayralari ostida esa sariq yoki qo‘ng‘ir–sariq rangli yumaloq shaklli smola saqlovchi yirik joylarni ko‘rish mumkin. Barg chetida ko‘pgina bir hujayrali tuklardan tashkil topgan to‘p-to‘p



holdagi tuklar joylashgan. Bargning yumshoq qismida juda yirik, o'tkir uchli druzlar bo'ladi.

Bahor chistyagi da barglar katta sathni tashkil etadi. Yashil barg sathining asosiy vazifasi fotosintez, transpiratsiya (suvni bug'latib havoga chiqarish) dan iborat. Barg sathiga tushgan yorug'lik nurining energiyasi organik moddalarning hosil bo'lishiga sarf etiladi. Barg orqali havodan olinadigan karbonat angidridi va ildiz sistemasi orqali poyaga o'tib turuvchi suv hisobiga organik modda hosil bo'ladi. Suv transpiratsiya tufayli poya orqali yuqori ko'tarilib turadi. Natijada bahor chistyagidan tirik hujayralar suv ta'minlanib turgor holati saqlanadi. Bundan tashqari transpiratsiya jarayoni o'simliklarni qizib ketishidan saqlaydi. Barg sathining o'sishi yorug'likni tutishga, gaz almashinishini kuchaytirishga va suvni bug'latishga bo'lgan moslanishdir. Bu moslanish uzoq davom etgan evolyusiya jarayonida o'simliklarni muhitga moslashishi natijasida vujudga kelgan.

O'simlik kuli tarkibida 43,9 % kaliy, 9,6 % natriy, 7,5 % kalsiy, 2,3 % magniy, 2,0 % temir, 2,9 % fosfor, 1,6 % oltingugurt, 7,8 % kremniy, 13,3 % xlor elementlari uchraydi (1-jadval). Shu bilan birgalikda o'simlik ildizida 6,7 oqsil, 1,0 yog', 40,3 kraxmal, 29,0 shakar va h.k mavjud.

O'simlik kuli tarkibida uchraydigan elementlar

K	Na	Ca	Mg	P	S	Si	Cl
43,9	7,5	2,3	2,0	1,6	7,8	13,3	Kam miqdorda

Davolash usullari: Bu o'simlikning shifobaxshlik xususiyati qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Ildizi va uning yashil qismlarida saponinlar, taninlar, yosh ko'katlarida 190 mg/% C vitamin mavjud. Xalq tabobatida o'simlikdan teri kasalliklari, bavoil, qon ketishini davolshda ishlatiladi.

Tarixdan ma'lumki, hindlarning hayotida o'simlik kuyish va yaralar, shishlarni davolovchi vosita sifatida muhim rol o'ynagan. Xitoyda u qadim-



qadimdan ko'pgina ochiq yaralarni davolashda ishlatilgan. O'simlik tarkibida vitaminlar, taninlar va boshqa bir qancha foydali elementlar borligi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Zamonaviy metitsina rivojlanishidan avval mazkur o'simlikni har xil kasalliklarni davolashda keng foydalanishgan. Ko'pgina xalqlar, shu jumladan Rossiyada, o'simlikdan tanadagi turli og'riqlarni yo'q qilishda ishlatiladi. Shu bilan birgalikda *Ficaria vetchinica* o'simligining ildizi va barglari dorivor maqsadida foydalaniladi.(4) O'simlik xom ashyosi aprel–may oylarida, gullashdan oldin yig'ib olinadi. Keyinchalik o'simlik tanasida zaharli moddalar to'playdi. O'simlikni qaynatmalaridan kishilar bir qancha kasalliklarni davolashda foydalanib kelishgan. Jumladan, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi, qonni tozalovchi, yaralarni davolovchi, nafas olish kasalliklarida balg'amlarni suyultirish, gastrit va oshqozon yarasi uchun ishlatiladi. Hozirgi kunda zamonaviy metitsinada o'simliklardan olingan dori vositalari limfa tizimini tozalashda, qon tomirlari devorlarini mustahkamlashda, qonni tozalashda, varikoz tomirlari, tromboz va qon aylanishi buzilishi kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Davolashda o'simlik mahsulotlaridan olingan dori mahsulotlarini dozasini oshirib yuborish natijasida bosh aylanishi, ovqat hazm qilish buzilishi, ichak buzilishi, pankreatit, ko'ngil aynishi va boshqa salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.(3)

O'simlik nafaqat Rossiyada, balki boshqa mamlakatlarda ham istemol qilinadi. Bundan tashqari mazkur o'simlik noodatiy foydalanishlar ham mavjud. Misol uchun, Buyuk Britaniyaning Kumbria grafligida barglari tishlarni yuvish vositasida foydalaniladi. Yosh ko'katlari har doim bahor salatlarini va sho'rvalarga qo'shimcha sifatida ishlatiladi.

Mamlakatimizda bu o'simlikning dekorativ shakllari keng tarqalgan emas. Lekin ingliz kolleksiyasida 150 dan ortiq dekorativ shakllari va navlari mavjud. Ular orasida *Floer Pleno* va boshqa bir qancha qimmatli navlari mavjud.



Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hech bir soha boshqa fanlarning yutuqlariga tayanmasdan turib, o'zlari mustaqil ravishda rivojlana olmaydi. O'z navbatida dorivor o'simliklarni o'stirish texnologiyasi ham o'simlikshunoslik, botanika, farmokognoziya, agrokimyo, tuproqshunoslik, o'simliklar fiziologiyasi va boshqa tabiiy fanlarning yutuqlariga tayangan holdagina o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erisha oladi. *Ficaria valthifolia* dorivorlik xususiyati yuqori o'simliklardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur o'simliklarga bo'lgan talab yildan–yilga oshib bormoqda. O'simliklarga bo'lgan talabni qondirish uchun *Ficaria valthifolia* o'simligini plantatsiyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Dorivorlik xususiyatidan tashqari o'simlik ayrim mamlakatlarda istemol qilinadi. Shu bilan birgalikda o'simlikning dekorativ xususiyati ham mavjud.

Uning tarkibida poligopiperin glikozidi (asosiy ta'sir etuvchi modda) 2-2,5 % flavanoidlar (ramnazin, izoramnetin, rutin, kversitrin, giperozid va kempferol) 0,0005 % efir moyi, chumoli, valeryan hamda sirki kislotalari, 3,8 % oshlovchi moddalar va boshqalar bo'ladi.(3) Ta'mli moddalar bor. O'simlik (ariq, hovuz bo'ylarida va namgarchiligi yuqori bo'lgan hududlarda o'sadi) o'tini 1 osh qoshig'ida choynakka solib damlanadi. Kuniga uch mahal, 1 osh qoshiqdan ovqatdan oldin ichiladi. Damlamani bachadondan qon ketganda va jinsiy a'zolar shamollaganda ichish tavsiya etiladi.

Bachodondan bemavrid qon ketganda, chipqon, qorason kasalliklarini davolashda ham ushbu o'simlikdan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Ya'ni, bunda 50 gr o'simlik o'ti 400 gr suvda qaynatilib, ana shu qaynatma bilan terining zararlangan joylari yuviladi. Ilmiy tibbiyotda ham o'simligidan keyingi vaqtda keng tarzda foydalanilmoqda.

O'simliklardan tayyorlangan preparatlari suyuq ekstrakt, damlama, gidropiperin ko'rinishida qon to'xtatuvchi hamda bavirusning davolovchi vosita sifatida ishlatiladi. Shuningdek, o'simlikning suyuq ekstrakti bavirusni davolashda qo'llaniladigan "Anuzol" shamchalari tarkibiga kiradi. Bavirus kasalligini



davolaganda bemor ichi kelib turishi uchun surgu dori ichib turish lozim va yuqorida yozilgan shifobaxsh o'simliklardan birini ichib, birini malham sifatida ichakka qo'yib turish yaxshi shifo beradi.

O'simlikdan tayyorlangan qaynatma va damlamasi bivosir kasalligida qon ketishiga qarshi davo qilish uchun buyrak va siydik tosh kasalliklarida, peshobni kuchaytiradigan vosita tariqasida, shuningdek shamollashga aloqador va tanosil kasalliklarida, diareyada ishlatiladi. Bulardan lavsha kasalligida milkni mustahkamlash maqsadida og'iz chayish uchun ham foydalaniladi. Yangi o'simlik o'ti radikulitlar, podagra, bosh og'rig'ida, shuningdek, jarohatlarni bitishining tezlashtirish uchun ishlatiladi.

Ushbu o'simlik preparati odatda, bachodondan qon ketishi, hayzning cho'zilishi jarayonlaridagi akusher-ginekologik amaliyoti hamda kompleks terapiyada ham samarali foydalaniladi. Shuningdek, shifokorlar mayda tomirlardan, me'da va ichaklar kapallyarlaridan qon ketganda ham chistiyakni tavsiya etishadi. Ayrim hollarda, ich ketish va enterokolitlarda ham o'simlik qaynatmalari buyuriladi.

Yoz oylarida terib olingan va ehtiyotlab quritilgan xomashyodan uy sharoitida damlama tayyorlash unchalik murakkab emas: og'zi yopiladigan sirlangan idishga 20 gr (ikki osh qoshiqda) o't talqonidan solib, bir stakan qaynoq suv quyiladi va 15 daqiqa qaynatiladi. Xona harorati sharoitida 45-50 daqiqa sovutiladi. Shundan keyin, idishda qolgan qaynatmani dokada suziladi. Olingan damlamani 200 millilitrga yetkazish uchun qaynagan suv qo'shiladi. Ichishga tayyor damlamani sovuq joyda ikki kungacha saqlab, kuniga 3-4 mahal ovqatdan oldin 1/3 stakan miqdorda ichiladi.

Ficaria calthifoliadan tayyorlangan maxsus preparatlar dorixonalarda sotiladi. Xalq tabobatida o'simlik damlamasi, ich ketishda, qon aralash ich ketishda, qon oqishini to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatiladi. O'simlikdan damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyib, ustiga o'simlikning maydalangan yosh yer ustki qismidan



bir osh qoshiq solinadi va bir soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokadan suzib kuniga 3 mahal ovqatdan yarim soat oldin bir osh qoshiqdan bir hafta ichib turiladi.

Keyingi yillarda zamonaviy tibbiyot jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan birgalikda dori-darmon ishlab chiqarish va insonlar salomatligi yo'lida bir qator muhim ishlar amalga oshirilmoqda.(5) O'z navbatida o'simliklardan dori-darmon tayyorlash texnologiyalari ham yuqori darajada takomillashtirilgan. Shu sababdan aynan *Ficaria calthifolia* o'simligi ham bundan mustasno emas.

Hozirgi kunda ushbu o'simlikdan ham insonlar ehtiyoji uchun zurrur bo'lgan bir qator preparatlar tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa ayni davrda dorivor o'simliklarni madaniylashtirish hamda insonlarning xo'jalik faoliyatida yuksak darajada foydalanishga turtki bo'lmoqda. Shu sababi dorivor o'simliklardan samarali foydalanish yo'llarini izlab topish hozirgi kunning asosiy vazifalaridandir.

*Ficaria calthifolia* tayyorlangan damlamani shifokorning tavsiyasi bilan ichish kerakligini unutmash kerak. Negaki, uning dorivorlik xususiyati bilan bir qatorda, ba'zi bir kasalliklarga salbiy ta'sir va zaharli bo'lishi mumkin. Ya'ni, bu o'simlikning damlamasini buyrak va qovuq yallig'langanda istemol qilish mumkin emas.

Xulosa qilib olganda o'simlikning yer ustki qismida bir qator elementlar mavjuddir. Bu elementlar insonlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Sababi, inson organizmi o'zi uchun kerak bo'lgan ko'pgina elementlarni aynan o'simliklardan oladi. Bu esa mavjud o'simlikning nechog'li ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu elementlarni quyidagi jadval asosida bilib olishimiz mumkin.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.**

1. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967;
2. Xoliqov K., O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, T., 1992;
3. Hoji matov Q.H., Yo'ldoshev K.Y., Shogulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., Fitoterapiya, T., 1995;
4. M urdoxayev Yu.M. Kultura lekarstvennix rasteniy v O'zbekistane, T., 1988.
5. URL: <https://www.plantarium.ru/lang/en/page/view/item/16397.html>